

FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

LG Gaming Monitor (LED MONITOR*)

* LG LED monitorlari bu LED yoritkichlariga ega LCD monitorlardir.

Iltimos, qurilmangizdan foydalanishdan avval ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va undan keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ying.

32GK850F

MUNDARIJA

LITSENZIYA.....3

YIG'ISH VA TAYYORLASH4

- Mahsulot tarkibi4
- Qo'llab-quvvatlanadigan drayverlar va dasturiy ta'minot.....5
- Mahsulot va tugma ta'rifi.....6
 - Joystik tugmasidan foydalanish
 - Kirish ulagichi
- Monitorni tashish va ko'tarish8
- Monitorni o'rnatish10
 - Tayanchni yig'ish
 - Stol ustiga o'rnatish
 - Tayanch balandligini sozlash
 - Egishni sozlash
 - Aylanish nuqtasi xususiyati
 - Kabellarni tartibga solish
 - Kensington qulfidan foydalanish
 - Tayanch korpusini ajratish
 - Devorga o'rnatish plastinasini o'rnatish
 - Devorga o'rnatish

MONITORDAN FOYDALANISH 21

- Kompyuterga ulash.....21
 - HDMI ulanishi
 - DisplayPort ulanishi
- AV qurilmalarini ulash.....23
 - HDMI ulanishi
- Tashqi moslamalarni ulash.....23
 - USB kabelini ulash
 - Quloqlikni ulash

FOYDALANUVCHI SOZLANMALARI 25

- Asosiy menyularni faollashtirish.....25
 - Asosiy menyu funksiyalari
- Foydalanuvchi sozlanmalari.....27
 - Menyu sozlanmalari

NOSOZLIKLARNI TUZATISH.... 38

MAHSULOT XUSUSIYATI..... 41

- Zavod qo'llab-quvvatlash rejimi43
- HDMI Sinxronizatsiyasi (Video).....44

LITSENZIYA

Har bir model turli litsenziyalarga egadir. Litsenziya haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun www.lg.com saytiga tashrif buyuring.



The terms HDMI and HDMI High-Definition Multimedia Interface, and the HDMI Logo are trademarks or registered trademarks of HDMI Licensing Administrator, Inc. in the United States and other countries.




The SuperSpeed USB Trident logo is a registered trademark of USB Implementers Forum, Inc.


YIG'ISH VA TAYYORLASH

Mahsulot tarkibi


Iltilmos, mahsulotni ishlatishdan avval qutining ichida barcha komponentlar mavjudligini tekshiring. Agar biror komponent yetishmasa, mahsulotning sotuvchisiga murojaat qiling. Mahsulot va tegishli komponentlarning ko'rinishi bu yerda ko'rsatilgandan farq qilishi mumkinligini e'tiborga oling.



CD (Foydalanuvchi qo'llanmasi /
Dasturiy ta'minot / Yo'riqnomalar)
/ Kartalar
(Mamlakatlarga qarab)



Quvvat manbaiga ulash
shnuri
(Mamlakatlarga qarab)




AC/DC Adapteri



USB 3.0 kabeli
(Mamlakatlarga qarab)



DisplayPort kabeli
(Mamlakatlarga qarab)



Tayanch asos




Kabel ushlagichi



Tayanch korpusi



Sichqoncha ushlagichi



HDMI kabeli
(Mamlakatlarga qarab)



EHITIYOT BO'LING

- Xavfsizlik va mahsulotning ishlashini ta'minlash uchun doim asl nusxali komponentlardan foydalaning.
- Mahsulot kafolati qalbaki komponentlardan foydalanish sababli zarar yoki shikastlanishni qoplamaydi.
- Taqdim qilingan komponentlardan foydalanish tavsiya qilinadi.
- Agar siz LG tomonidan tasdiqlanmagan umumiy kabellardan foydalansangiz, ekran ko'rsatmasligi yoki tasvirlarda xalaqitlar mavjud bo'lishi mumkin.



ESLATMA


- Komponentlar bu yerda ko'rsatilgandan farq qilishi mumkin.
- Mahsulotning ishlashini yaxshilash maqsadlarida ushbu qo'llanma tarkibidagi barcha ma'lumot va xususiyatlari oldindan ogohlantirishsiz o'zgartirilishi mumkin.
- Qo'shimcha aksessuarlarni xarid qilish uchun elektrojihozlarni sotuvchi do'kon yoki onlayn do'konning saytiga tashrif buyuring, yoki ushbu mahsulotni sizga sotgan sotuvchiga murojaat qiling.
- Quvvat manbaiga ulash shnuri mintaqaga bog'liq bo'lib farq qilishi mumkin.

Qo'llab-quvvatlanadigan drayverlar va dasturiy ta'minot

So'nggi versiyasini LGE veb-saytidan (www.lg.com) yuklab olishingiz va o'rnatishingiz mumkin.

Drayverlar va dasturiy ta'minot	O'rnatish ustuvorligi	32GK850F
Monitor drayveri	Tavsiya etiladi	O
OnScreen Control	Tavsiya etiladi	O

Mahsulot va tugma ta'rifi



Joystik tugmasi / Quvvat LED

- Yoqish: Yoqish
- O'chirish: O'chirish

Joystik tugmasidan foydalanish

Siz monitoring funksiyalaridan joystik tugmasini bosib yoki barmoqlaringiz bilan o'ngga/chapga yo'naltirish yordamida osongina boshqarishingiz mumkin.

Asosiy funksiyalar


		Yoqish	Monitorni yoqish uchun barmog'ingiz bilan joystikni bir marta bosib.
		O'chirish	Monitorni o'chirish uchun barmog'ingiz bilan joystikni bosib, ushlab turing.
		Ovoz balandligi Boshqaruv	Joystikni o'ngga/chapga yo'naltirish yordamida ovoz balandligini boshqarishingiz mumkin.
		Ekran yorqinligini boshqarish	Joystik tugmasini yuqoriga/pastga harakatlantirish orqali ekran yorqinligini boshqarish mumkin.



ESLATMA

- Joystik tugmasi monitoring tagida joylashgan.


Kirish ulagichi



Monitorni tashish va ko'tarish

Monitorni tashish yoki ko'tarishda, uning turi va o'lchamlaridan qat'iy nazar, tiralish yoki shikastlanishning oldini olish va xavfsiz tarzda tashish uchun quyidagi yo'riqnomalarga amal qiling.

- Tashishdan avval monitorni asl nusxali qutisiga joylashtirish tavsiya etiladi.
- Monitorni ko'chirishdan avval quvvat manbaiga ulash shnuri va barcha boshqa kabellarni uzing.
- Monitor korpusining yon va tagidagi qismlarini mahkam ushlang. Panelga qo'lingizni tekkizmang.



- Monitorni ushlaganda tiralishning oldini olish uchun ekran sizga qarama-qarshi tomonga qarab turishi kerak.
- Monitorni tashish vaqtida uni zarbalar yoki ortiqcha tebranishlar ta'siriga qo'ymang.
- Monitorni ko'targanda, vertikal holatda tuting va hech qachon yon tomonga ag'darmang yoki engashtirmang.




EHTIYOT BO'LING

- Illoji boricha monitor ekraniga qo'l tekkizmaslikka harakat qiling.
- Aks holda ekran yoki tasvirni yaratishda ishtirok etuvchi piksellar shikastlanishi mumkin.




- Agar siz monitor panelidan tayanch asosisiz foydalansangiz, uning joyistik tugmasi monitorning mahkam o'rnamasligi va yiqilishiga sabab bo'lishi, bu esa monitorning shikastlanishi yoki odamlarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari bu joyistik tugmasining noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.




Monitorni o'rnatish

Tayanchni yig'ish


1




2



3

**ESLATMA**


- Tugma yuqoriga yetguncha taglikni bosin.

**EHTIYOT BO'LING**


- Ushbu hujjatdagi tasvirlar oddatdagi jarayonlarni aks etadi, shuning uchun ular haqiqiy mahsulotdan farq qilishi mumkin.
- Mahsulotni yig'ishda qotiriladigan joylariga yot moddalar (moy, smazka) surtmang. (Buning natijasida mahsulotga shikast yetishi mumkin.)
- Vintlarni mahkamlashda me'yordan ortiq kuch ishlatish monitoring shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday shikastlanishni mahsulotga berilgan kafolat qoplamaydi.
- Monitorni shunchaki asosidan ushlab, teskarisini ag'darib tashib yurmang. Monitor asosdan chiqib ketishi va sog'liqqa zarar yetkazishi mumkin.
- Monitorni ko'targanda yoki tashiganda uning ekranini tegmang. Monitor ekraniga ishlatilgan kuch uning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Stol ustiga o'rnatish

- 1 Monitorni ko'taring va stol ustiga vertikal holatda joylashtiring. Yetarli ventilyatsiyani ta'minlash uchun monitorni devordan kamida 100 mm uzoqlikda joylashtiring.



- 2 Avval quvvat mabaining adapterini monitorga ulang, keyin quvvat manbaiga ulash shnurini devordagi rozetkaga ulang.




- 3 Monitorni yoqish uchun uning tagida joylashgan joystikni bir marta bosib.



EHTIYOT BO'LING

- Monitorni ko'chirish yoki o'rnatishdan avval quvvat manbaiga ulash shnurini ajrating. Elektr toki urishi xavfi mavjud.

Elektr manbaiga ulash shnurini ulashdagi ehtiyot choralari




100-240 V ~


- Mahsulot to'plami bilan berilgan elektr manbaiga ulash shnuridan foydalaning va uni yerga ulangan rozetkaga ulang.
- Agar sizga boshqa elektr manbaiga ulash shnuri kerak bo'lsa, mahalliy dilerga yoki sizga yaqin joylashgan chakana savdo do'koniga murojaat qiling.

Tayanch balandligini sozlash


- 1 Tayanch asosiga o'rnatilgan monitorni vertikal holatga o'rming.
- 2 Xavfsizlik uchun monitorni ikkala qo'lingiz bilan ushlang.



Maks. 110,0 mm




DIQQAT



- Ekraning balandligini sozlaganda barmoqlaringizni shikastlamalik uchun qo'lingizni tayanch ustiga qo'ymang.


Egilishni sozlash

- 1 Tayanch asosiga o'rnatilgan monitorni vertikal holatga o'rnatish.
 - 2 Ekran egilishini sozlang.
- Qulay ko'rish uchun ekran egilishini -5° dan 15° gacha oldinga yoki orqaga sozlash mumkin.




! DIQQAT


- Ekranni sozlash vaqtida barmoqlarga shikast yetishining oldini olish uchun quyida ko'rsatilgani kabi monitor ramasining quyi qismidan ushlamang.



- Monitor egilishini sozlaganda ekran yuzini tegish yoki bosishdan ehtiyot bo'ling.




! ESLATMA



Aylanuvchan tayanch (soat mili bo'yicha 20°)
Aylanuvchan tayanch (soat ko'rsatgichiga qarshi 20°)

Aylanish nuqtasi xususiyati


Aylanish nuqtasi xususiyati monitorni soat mili yo'nalishida 90° aylantirishga imkon beradi.




OGOHLANTIRISH

- Tayanch asosining timalishining oldini olish uchun aylanish xususiyatidan foydalangan holda monitorni aylantirganda tayanchning monitorga tegmasligiga ishonch hosil qiling.

1 Monitorni maksimal balandlikka ko'taring.



- 2 Monitor burchagini rasmda ko'rsatilgani kabi mil yo'nalishida sozlang.



- 3 Monitorni rasmda ko'rsatilgani kabi soat mili yo'nalishida aylantiring.



- 4 Monitorni quyida ko'rsatilgani kabi 90° ga aylantirish orqali o'rnatishni tugallang.




ESLATMA


- Displayning avtomatik aylanish nuqtasi xususiyati qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Windows operatsion tizimi bilan birga berilgan ekranning aylanish nuqtasi yorliq tugmasidan foydalangan holda ekranni osongina aylantirish mumkin. Shuni yodda tutingki, ba'zi bir Windows versiyalari va ba'zi bir videokartalar ekranning aylantirish kaliti uchun har xil parametrlarni ishlatishi mumkin yoki umuman aylantirish kalitini qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.

Kabellarni tartibga solish

Rasmda ko'rsatilgani kabi kabellar ushlagichidan foydalangan holda kabellarni tartiblang.



Sichqoncha
ushlagichi




Kabel ushlagichi

Kensington qulfidan foydalanish

Kensington xavfsizlik tizimining ulagichi monitorning pastida joylashgan.

O'rnatish va foydalanish bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun Kensington qulfining foydalanuvchi qo'llanmasiga murojaat qiling yoki <http://www.kensington.com> saytiga tashrif buyuring.

Kensington xavfsizlik tizimining kabelidan foydalanib, monitorni stolga ulang.




ESLATMA

- Kensington xavfsizlik tizimimi ixtiyoriy hisoblanadi. Siz qo'shimcha aksessuarlarni elektrojihozlarni sotuvchi ko'p do'konlardan olishingiz mumkin.

Tayanch korpusini ajratish

- 1 Ekran tomonini pastga qaratib joylashtiring. Ekranni tirnalishlardan saqlash uchun yuzasini yumshoq mato bilan o'rab qo'ying.
- 2 Monitorning orqa tomoning quyi markazidagi tugmani bosish orqali tayanchni monitordan bo'shatib oling.



Devorga o'rnatish plastinasini o'rnatish

Bu monitor devorga o'rnatish plastinasi yoki boshqa mos keluvchi qurilmalarning xususiyatlariga javob beradi.

- 1 Ekran tomonini pastga qaratib joylashtiring. Monitor panelini (ekran) himoya qilish uchun yuzasini yumshoq latta yoki mahsulot qadog'iga qo'shib berilgan monitorni himoya qilish yostiqligi bilan yoping.
- 2 Monitorning orqa tomonida qotirilgan to'rtta burama mixni bo'shatib oling.
- 3 Devorga o'rnatish plastinasini monitorga joylashtiring va vint teshiklariga to'g'rilang.
- 4 Platani monitorga mahkamlash uchun otvyortka bilan to'rtta burama mixni burab kirgizing.




ESLATMA

- Devorga o'rnatish plastinasi alohida sotiladi.
- O'rnatish bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun devorga o'rnatish plastinasining o'rnatish yo'riqnomasini ko'ring.
- Devorga o'rnatish plastinasini o'rnatganda juda ko'p kuch ishlatishdan ehtiyot bo'ling, chunki bu ekranning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Devorga o'rnatish


Yetarli ventilyatsiyani ta'minlash uchun monitorni devordan kamida 100 mm uzoqlikda va uning har bir tomonidan o'rtacha 100 mm bosh joy qoldirib o'rnatish. O'rnatish bo'yicha batafsil yo'riqnomalarni mahalliy do'kondan olish mumkin. Boshqa yo'li, devorga o'rnatish engashuvchi kronshteynini qanday o'rnatishni bilish uchun uning qo'llanmasiga qarang.



Monitorni devorga o'rnatish uchun devorga o'rnatish kronshteynini (ixtiyoriy) monitorning orqasiga biriktiring.

Devorga o'rnatish kronshteyni monitor va devorga mustahkam qotirilganligiga ishonch hosil qiling.

- 1 Agar siz standart uzunlikdan uzunroq vintlardan foydalansangiz, mahsulotning ichiga zarar yetishi mumkin.
- 2 VESA standartiga to'g'ri kelmaydigan vint mahsulotga zarar yetkazishi va monitorning qulashiga sabab bo'lishi mumkin. LG Electronics standartga javob bermagan vintlardan foydalanishga tegishli bo'lgan hech qanday baxtsiz hodisa uchun javobgar emas.

Devorga o'rnatish (mm)	100 x 100
Standart vint	M4 x L10
Vintlar soni	4
Devorga o'rnatish plastinasi (ixtiyoriy)	LSW 149 



ESLATMA


- VESA standartlariga belgilangan vintlardan foydalaning.
- Devorga o'rnatish to'plami qo'llanma va barcha kerakli qismlarni o'z ichiga oladi.
- Devorga o'rnatish kronshteyni ixtiyoriy hisoblanadi. Siz qo'shimcha aksessuarlarni mahalliy dilingizdan olishingiz mumkin.
- Har bir devorga o'rnatish kronshteyni uchun vint uzunligi farq qilishi mumkin. Kerakli uzunlikdan foydalanilganligiga ishonch hosil qiling.
- Qo'shimcha ma'lumot uchun devorga o'rnatish kronshteynining foydalanuvchi qo'llanmasiga qarang.



EHTIYOT BO'LING

- Elektr toki urishining oldini olish uchun monitorni ko'chirish yoki o'rnatishdan avval quvvat manbaiga ulash shnurini ajrating.
- Monitorni shiftga yoki qiya devorga o'rnatangiz, u qulab tushishi va sog'liqqa zarar yetkazishi mumkin. Vakolatli LG devorga mahkamlovchisidan foydalaning va mahalliy diler yoki malakali xodimlarga murojaat qiling.
- Vintlarni mahkamlashda me'yordan ortiq kuch ishlatish monitorning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday shikastklanishni mahsulotga berilgan kafolat qoplamaydi.

- VESA standartlariga mos keluvchi devorga o'rnatish kronshteyni va vintlaridan foydalaning. Yaroqsiz komponentlardan foydalanish yoki noto'g'ri foydalanish sababli buzilishni mahsulotga berilgan kafolat qoplamaydi.
- Monitorning orqasidan o'lchasa, har bir o'rnatilgan vintning uzunligi 8 mm yoki undan kam bo'lishi shart.



MONITOR DAN FOYDALANISH

- Quyidagi yo'riqnomalar 32GK850F-modelga asoslangan. Ushbu qo'llanmadagi rasmlar haqiqiy mahsulotdan farq qilishi mumkin.
- Joystik tugmasini bosib, **Settings (Sozlamalar)** → **Input (Kiritish)** -ga o'tib, kiritish variantlarini tanlang.



EHTIYOT BO'LING

- Ekranni uzoq vaqt bosib turmang. Bu tasvirning buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Ekranda harakatsiz tasvirlarni uzoq vaqtga joylashtirmang. Bu qoldiq tasvirga olib kelishi mumkin. Imkon bo'lsa, ekran saqllovchisidan foydalaning.



ESLATMA


- Quvvat manbaiga ulash shnurini devordagi rozetkaga ulaganda, yerga ulangan (3-teshikli) udlinitel yoki yerga ulangan rozetkadan foydalaning.
- Harorati past bo'lgan joyda yoqilganda, monitor miltillab ishlashi mumkin. Bu oddiy holdir.
- Ba'zan ekranda qizil, yashil yoki ko'k nuqtalar ko'rinishi mumkin. Bu oddiy holdir.

Kompyuterga ulash

- Ushbu monitor *Plug and Play funksiyasini qo'llab-quvvatlaydi.
- * Plug and Play: Hech narsalarni qayta konfiguratsiya yoki hech qanday drayverlarni o'rnatmasdan, kompyuterga biron-bir qurilmani ulashga imkon beruvchi funksiyadir.

HDMI ulanishi

Raqamli video va audio signallarni kompyuterdan monitorga o'tkazadi. Quyidagi tasvirda ko'rsatilganidek, HDMI kabelidan foydalanib kompyuterni monitorga ulang.






EHTIYOT BO'LING

- DVI-dan HDMI-ga / DP-dan (DisplayPort) HDMI-ga kabelidan foydalanish moslik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.
- HDMI logotipiga ega kafolatlangan kabeldan foydalaning. Agar kafolatlanmagan HDMI kabelidan foydalansangiz, ekran namoyish qilmasligi yoki ulanishda xatolik yuzaga kelishi mumkin.
- Tavsiya qilingan HDMI kabeli turlari
 - Yuqori tezlikda ishlaydigan HDMI®/™ kabeli
 - Ethernet tamoq ulanishiga ega yuqori tezlikda ishlaydigan HDMI®/™ kabeli

DisplayPort ulanishi

Raqamli video va audio signallarni kompyuterdan monitorga o'tkazadi. Quyidagi tasvirda ko'rsatilganidek, DisplayPort kabelidan foydalanib monitorni kompyuterga ulang.




ESLATMA

- Kompyuterdagi DP(DisplayPort) versiyasiga qarab video yoki audio chiqish mavjud bo'lmisligi mumkin.
- Mahsulot bilan birga berilgan DisplayPort kabelidan foydalanilganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda bu qurilmaning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

AV qurilmalarini ulash

HDMI ulanishi

Raqamli video va audio signallarini AV qurilmasidan monitorga o'tkazadi. Quyidagi tasvirda ko'rsatilganidek, HDMI kabelidan foydalanib AV qurilmasini monitorga ulang.



! ESLATMA

- DVI-dan HDMI-ga / DP-dan (DisplayPort) HDMI-ga kabelidan foydalanish moslik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.
- HDMI logotipiga ega kafolatlangan kabeldan foydalaning. Agar kafolatlanmagan HDMI kabelidan foydalansangiz, ekran namoyish qilmasligi yoki ulanishda xatolik yuzaga kelishi mumkin.
- Tavsiya qilingan HDMI kabeli turlari
 - Yuqori tezlikda ishlaydigan HDMI®/TM kabeli
 - Ethernet tamoq ulanishiga ega yuqori tezlikda ishlaydigan HDMI®/TM kabeli

Tashqi moslamalarni ulash


USB kabelini ulash

Mahsulotdagi USB porti USB xabi sifatida ishlaydi.

USB 3.0 dan foydalanish uchun mahsulotning A-B turdagi USB 3.0 kabelini kompyuterga ulang.


USB IN porti orqali ulangan periferik qurilmalarni kompyuter orqali boshqarish mumkin.

USB oqim bo'ylab pastgi portidan foydalanish uchun, rasmdagi ko'rsatilgandek USB A / B tipli kabelni ulang.



! ESLATMA

- Mahsulotdan foydalanishdan avval eng so'nggi Windows OT versiyasini o'rnatganligingizga ishonch hosil qiling.
- Tashqi moslamalar alohida sotiladi.
- Klaviatura, sichqoncha yoki USB qurilmasini USB porti orqali ulash mumkin.
- **Quick Charge (Tezkor zaryadlash)** USB1 va USB2 porti orqali mavjud.
- Monitor o'chganida **Quick Charge (Tezkor zaryadlash)** mavjud bo'lmaydi.
- Qurilmaga bog'liq ravishda zaryadlash tezligi farq qilishi mumkin.




! EHTIYOT BO'LING

USB qurilmasidan foydalanishdagi ehtiyot chorolari

- Avtomatik tanib olish dasturi o'rnatilgan yoki o'z drayveridan foydalanuvchi USB qurilmasi tanib olinmasligi mumkin.
- Ayrim USB qurilmalari qo'llab-quvvatlanmasligi yoki to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Quvvat bilan ta'minlangan USB xab yoki qattiq diskdan foydalanish tavsiya qilinadi. (Agar quvvat ta'minoti mos bo'lmasa, USB qurilmasi to'g'ri tanib olinmasligi mumkin.)

Quloqlikni ulash

Quloqlik porti orqali tashqi moslamani monitorga ulaydi. Tasvirda ko'rsatilganidek ulang.




(alohida sotiladi)

! ESLATMA

- Tashqi moslamalar alohida sotiladi.
- Agar siz Bukilgan naushniklardan foydalansangiz, boshqa tashqi moslamani ulashda muammo tug'ilishi mumkin. Shuning uchun To'g'ri naushniklardan foydalanish tavsiya etiladi.



Bukilgan




To'g'ri

- Kompyuter va tashqi moslamaning audio sozlanmalariga bog'liq ravishda quloqlik va karnay funksiyalari chegaralangan bo'lishi mumkin.

FOYDALANUVCHI SOZLANMALARI


Asosiy menyularni faollashtirish

- 1 Monitorning tagida joylashgan joystikni bosing.
- 2 Variantlarni belgilash uchun joystikni yuqoriga/ pastga (▲ / ▼) va chapga/o'ngga (◀ / ▶) bosing.
- 3 Asosiy menyudan chiqish uchun joystik tugmasini yana bir marta bosing.



Tugma	Menu holati		Tavsifi
	Asosiy menyu o'chirilgan		Asosiy menyuni faollashtiradi.
	Asosiy menyu yoqilgan		Asosiy menyudan chiqadi. (Monitorni o'chirish uchun tugmani ushlab turing: Bu yo'l bilan siz monitorni istagan vaqtda ochirishingiz mumkin, shu jumladan, OSD (display) yoqilganda ham)
	◀	Asosiy menyu o'chirilgan	Monitorning ovoz balandligi darajasini sozlaydi.
		Asosiy menyu yoqilgan	Input (Kirish) xususiyatiga kiradi.
	▶	Asosiy menyu o'chirilgan	Monitorning ovoz balandligi darajasini sozlaydi.
		Asosiy menyu yoqilgan	Settings (Parametrlar) xususiyatlariga kiradi.
	▲	Asosiy menyu o'chirilgan	Monitorning yorqinlik darajasini sozlaydi.
		Asosiy menyu yoqilgan	Monitorni o'chiradi.
	▼	Asosiy menyu o'chirilgan	Monitorning yorqinlik darajasini sozlaydi.
		Asosiy menyu yoqilgan	Game Mode (O'yin rejimi) xususiyatiga kiradi.

Asosiy menyu funksiyalari



Asosiy menyu	Tavsifi
Input (Kirish)	Kiritish rejimini oʻrnatadi.
Power Off (O'chirish)	Monitorni o'chiradi.
Settings (Sozlamalar)	Ekran sozlanmalarini oʻrnatadi.
Game Mode (O'yin rejimi)	O'yin uchun o'yin rejimini oʻrnatadi.
Exit (Chiqish)	Asosiy menyu sahifasidan chiqish.

Foydalanuvchi sozlanmalari

Menyu sozlanmalari

- 1 Sozlamalar menyusini ko'rish uchun monitor pastki qismidagi joystick tugmasini bosib va keyin **Settings (Sozlamalar)** ga kiritib.
- 2 Joystickni yuqoriga/pastga/chapga/o'ngga bosib variantlarni belgilang.
- 3 Oldidagi sozlamalar ga qaytish yoki boshqa sozlamalar o'rnatish uchun joystickni ◀ ga siljiting yoki (🖱️) tugmasini bosib.
- 4 Sozlamalar menyusidan chiqish uchun, chiqib bo'lguncha joystick'ni ◀ belgisi ustiga siljiting.



Game Mode (O'yin rejimi)



Game Adjust (O'yinni sozlash)



Picture Adjust
(Tasvirni sozlash)



Input (Kirish)



General (Umumiy)

Settings (Sozlamalar)		Tavsifi
Game Mode (O'yin rejimi)		O'yin rejimini berilgan xususiyat uchun optimallashtirgan rejimga o'zgartiradi.
Game Adjust (O'yinni sozlash)		1ms Motion Blur Reduction, FreeSync, Black Stabilizer, Response Time, Cross Hair va Game Reset parametrlarini sozlaydi.
Picture Adjust (Tasvirni sozlash)		Brightness, Contrast, Sharpness, Gamma, Color Temp, R/G/B, Black Level, DFC va Picture Reset parametrlarini sozlaydi.
Input (Kirish)	Input List (Kiritish ro'yxati)	Kirish rejimini tanlaydi.
	Aspect Ratio (Nisbat koeffitsiyenti)	Ekran tomonlarining nisbatini sozlaydi.
General (Umumiy)		Language, SMART ENERGY SAVING, Power LED, Automatic Standby, HDMI Compatibility Mode, DisplayPort 1.2, Quick Charge, OSD Lock, Information va Reset parametrlarini sozlaydi.



EHTIYOT BO'LING


- Monitoringdagi OSD (Ekrandagi display) ushbu qo'llanmada ko'rsatilganidan bir oz farq qilishi mumkin.

SDR (HDR-emas) signal dagi Game Mode (O'yin rejimi)

Settings (Sozlamalar) > Game mode (O'yin rejimi)		Tavsifi
Game Mode (O'yin rejimi)	Gamer 1 (Geymer 1)	Bu rejimda foydalanuvchilar o'yinga bog'liq opsiyalarni sozlashlari mumkin. Gamer 1 (Geymer 1) va Gamer 2 (Geymer 2) tasvir rejimlari ikkita displey sozlamalari majmuasini, jumladan, o'yinga bog'liq opsiyalarni saqlash imkonini beradi.
	Gamer 2 (Geymer 2)	
	FPS	Bu rejim FPS o'yinlari uchun optimallashtirgan. U juda qora FPS o'yinlariga mos keladi.
	RTS	Bu rejim RTS o'yini uchun optimallashtirgan.
	Vivid	Yorqin ranglar uchun ekran eng yaxshi holatga keltirildi.
	Reader (O'qigich)	Hujjatlarni ko'rish uchun ekranni optimallashtiring. sozlamalar menyusida ekranni yoriq qilish mumkin.
	HDR Effect	Yuqori dinamik intervalli uchun ekranni optimallashtiradi.
	sRGB	Monitor va printer uchun standart RGB ranglar sohasi.

HDR signal dagi Game Mode (O'yin rejimi)

Settings (Sozlamalar) > HDR Game mode (HDR O'yin rejimi)		Tavsifi
HDR Game Mode (HDR O'yin rejimi)	Gamer 1 (Geymer 1)	Bu rejimda foydalanuvchilar o'yinga bog'liq opsiyalarni sozlashlari mumkin.
	Gamer 2 (Geymer 2)	Gamer 1 (Geymer 1) va Gamer 2 (Geymer 2) tasvir rejimlari ikkita displey sozlamalari majmuasini, jumladan, o'yinga bog'liq opsiyalarni saqlash imkonini beradi.
	FPS	Bu rejim FPS o'yinlari uchun optimallashtgan. U juda qora FPS o'yinlariga mos keladi.
	RTS	Bu rejim RTS o'yini uchun optimallashtgan.
	Vivid	Yorqin ranglar uchun ekran eng yaxshi holatga keltirildi.
	Standard	HDR uchun ekranni eng yaxshi holatga keltirildi.
	 ESLATMA - Windows10 operatsion tizimiga qarab, HDR tarkibi to'g'ri ishlamasligi mumkin. Windows HDR-ning On / Off (Yoqilgan / O'chirilgan) ekanligini tekshiring. - Grafika ishlashiga qarab, HDR funksiyasi yoqilganda belgi yoki tasvir sifati past bo'lishi mumkin. - Grafika ishlashiga qarab, monitor kirish yoki On / Off (Yoqilgan / O'chirilgan) holati o'zgartirilganda HDR funksiyasi yoqilganda displey milt-milt yoki shikast etkazishi mumkin.	

Settings (Sozlamalar) > Game Adjust (O'yinni sozlash)		Tavsifi	
Game Adjust (O'yinni sozlash)	1ms Motion Blur Reduction	On (Yoqish)	Ushbu tartib-tez harakatli video harakat xiraligini kamaytiradi. Ushbu funktsiya to'liq foyda olish uchun, 1ms Motion Blur Reduction (1ms harakatli xiralikni kamaytirish) kamaytirishdan oldin. 120Hz/144Hz @ 2560 x 1440 tanlang.  Ushbu funktsiya quyidagi vertikal chastota uchun foydalanish mumkin. (120Hz, 144Hz)
		Off (O'chirish)	Buraganda 1ms Motion Blur Reduction (1ms harakatli xiralikni kamaytirish) o'chirish. 
		ESLATMA • Harakatda xirra bo'lishi kamaytirish uchun, yorqinligi orqa yorug'lik bilan kamayadi. • 1ms Motion Blur Reduction va FreeSync xususiyati bir vaqtning o'zida ishlatilishi mumkin emas. • Ushbu funktsiya o'yin-optimallashtirilgan hisoblanadi. • O'yin vazifasini foydalanmayotgan bo'lsangiz o'chirib qo'yish tavsiya etiladi.	

Game Adjust (O'yinni sozlash)	FreeSync	Kelayotgan tik signal qaytarilishini chiqayotgan signalniki bilan sinxronlashtirib tasvirni yaxlit va tabiiy qiladi.	
		 EHTIYOT BO'LING • Mos keladigan interfeys: DisplayPort, HDMI. • Mos keladigan Video karta: AMDning FreeSync video kartasi kerak bo'ladi. • Mos keladigan turi: Video kartani oxirgi ishlatgich dasturga mos qilib yangilab oling. • Boshqa ma'lumot bilan talablar http://www.amd.com/FreeSync manzilidagi AMD veb sahifasida berilgan. • FreeSync va 1ms Motion Blur Reduction bir vaqtning o'zida yoqilishi mumkin emas.	
		Extended (Kengaytirilgan)	Asosiy rejimiga ko'ra keng chastota diapazoning FreeSync funktsiyasini yoqish. Ekran o'yin paytida miltillashi mumkin.
		Basic (Asosiy)	Asosiy chastota diapazoning FreeSync funktsiyasi yoqish.
		Off (O'chirish)	FreeSync funktsiyasini o'chirish.
	Black Stabilizer (Qora stabilizator)	Qora sahnalarda yaxshiroq ko'rinishga ega bo'lish uchun qora kontrastni boshqarishingiz mumkin. Qorong'i o'yin ekranlarida obyektlarni osongina tanib olish mumkin.	

Game Adjust (O'yinni sozlash)	Response Time (Javob berish vaqti)	Ekran tezligiga asoslanib ko'rsatilayotgan tasvirlar uchun javob berish vaqtini o'rnatadi. Odatdagi muhit uchun Fast (Tez) dan foydalanish tavsiya etiladi. Tez harakatlanuvchi tasvir uchun Faster (Tezroq) variantidan foydalanish tavsiya etiladi. Faster (Tezroq) ga o'rnatish qoldiq tasvir holatiga sabab bo'lishi mumkin.	
		Faster (Tezroq)	Javob berish vaqtini Faster (Tezroq) holatiga o'rnatadi.
		Fast (Tez)	Javob berish vaqtini Fast (Tez) holatiga o'rnatadi.
		Normal (Odatdagi)	Javob berish vaqtini Normal (Odatdagi) holatiga o'rnatadi.
		Off (O'chirish)	Javob berish vaqti yaxshilash xususiyatidan foydalanilmaydi.
	Cross Hair (Krest)	Krest o'yinlarda (FPS - First Person Shooter - Otishma) ekran markaziga krest belgisini qo'yadi. To'rtta krestdan oyin muhitiga mos keladigan bittasini tanlash mumkin. • Monitor o'chiq bo'lsa yoki energiyani tejash rejimiga kirs, Krest xususiyati avtomatik ravishda o'chadi.	
	Game Reset (O'yinni qayta tiklash)	O'yinni standart qiymatlariga qaytaradi.	

Settings (Sozlamalar) › Picture Adjust (Tasvirni sozlash)		Tavsifi		
Picture Adjust (Tasvirni sozlash)	Brightness	Ekranning yorqinligini sozlash.		
	Contrast	Ekranning kontrastini sozlash.		
	Sharpness (Aniqlik Kiritish)	Ekran o'tkirligini sozlang		
	Gamma	Mode 1, Mode 2, Mode 3	Gamma qiymati qanchalik baland bo'lsa, tasvir shunchalik qoraroq bo'ladi. Shu kabi gamma qiymati qanchalik past bo'lsa, tasvir shunchalik yorug'roq bo'ladi.	
		Mode 4	Agar gamma sozlashi o`zgartirish kerak bo'lmasa, Mode 4-ni tanlang.	
	Color Temp (Rang harorati)	Custom (Sozlanadigan)	Zavodda o'rnatilgan tasvir rangini tanlaydi.	
		Warm (Iliq)	Ekran rangini qizg'ish tusga o'rnatadi.	
		Medium (O'rtacha)	Ekran rangini qizil bilan ko'k rang oralig'ida o'rnatadi.	
		Cool (Sovuq)	Ekran rangini ko'kintir rangga o'rnatadi.	
		Manual	Rang haroratini 500K dan ko'tarib o'zgartiradi. (Esingizda bo'lsin, 9500K o'rniga 9300K ni ko'taradi).	
	R/G/B	Siz tasvir rangini Red (Qizil) , Green (Yashil) va Blue (Ko'k) ranglardan foydalanib o'rnatishingiz mumkin.		
	Black Level (Qora Rang Darajasi)	Siljish darajasini o'rnatish uchun (faqat HDMI kiritish uchun) • Siljish: video signal uchun ma'lumot sifatida, bu monitor tasvirlay oladigan eng to'q rang hisoblanadi.		
		High (Yuqori)	Ekranning hozirgi keskinlik darajasini saqlab turadi.	
		Low (Past)	Ekrandagi joriy kontrast nisbatining qora darajalarni kamaytiradi va oq darajalarni ko'paytiradi.	
	DFC	On (Yoqish)	Ektranga ko'ra ravshanlikni avtomatik ravishda sozlaydi.	
		Off (O'chirish)	DFC xususiyatini o'chiradi.	
Picture Reset (Tasvirni qayta tiklash)	Tasvir va ranglarni standart qiymatlariga qaytaradi.			

Settings (Sozlamalar) > Input (Kiritish)		Tavsifi	
Input (Kirish)	Input List (Kiritish ro'yxati)	Kirish rejimini tanlaydi.	
	Aspect Ratio (Nisbat koeffitsiyenti)	Ekran tomonlarining nisbatini sozlaydi.	
		Full Wide (To'la kenglik)	Kiruvchi signal dan qat'iy nazar videoni keng ekranda ko'rsatadi.
		Original (Asl)	Kiruvchi video signaldagi tomonlar nisbatiga mos video ko'rsatadi.
		1:1	Tomonlarining nisbatini aslidan boshqarib bo'lmaydi.
		 ESLATMA - Tavsiya qilingan tasvir aniqligida display Full Wide (To'la kenglik), Original (Asl) va 1:1 opsiyalari uchun bir xil ko'rinishi mumkin. (2560 x 1440) - Bu FreeSync (FreeSync) rejimida 1:1(1:1) yo'q, (Picture (Tasvir) → Game Adjust (o'yin moslashtirish) → FreeSync (FreeSync), orqali FreeSync On (FreeSync yoqish) yoki Off (O'chirish) deb sozlang)	

Settings (Sozlamalar) > General (Umumiy)		Tavsifi
General (Umumiy)	Language (Til)	Ekran menyusini istagan tilga o'rnatadi.
	SMART ENERGY SAVING (AQILLI ENERGIYA TEJASH)	High (Yuqori) Samaradorligi yuqori bo'lgan SMART ENERGY SAVING funksiyasi yordamida quvvatni saqlaydi.
		Low (Past) Samaradorligi past bo'lgan SMART ENERGY SAVING funksiyasi yordamida quvvatni saqlaydi.
		Off (O'chirish) SMART ENERGY SAVING funksiyasini o'chiradi.
	Power LED (Quvvat LED)	Monitoring pastidagi Quvvat LED-ni yoqadi yoki o'chiradi.
		On (Yoqish) Quvvat LED avtomatik ravishda yonadi. - Yoqish rejimi: Qizil - Uyqu rejimi (Kutish rejimi): Qizil rang miltillaydi - O'chirish rejimi: O'chirish
		Off (O'chirish) Quvvat LED o'chadi.
	Automatic Standby (Avto kutish rejimi)	Ma'lum vaqt davomida ekranda harakat bo'lmagan vaqtda monitorni avtomatik ravishda o'chiruvchi xususiyat. Siz taymerni avtomatik o'chirish funksiyasi uchun o'rnatishingiz mumkin. (Off (O'chirish) , 4H , 6H , va 8H)
	HDMI Compatibility Mode	HDMI Compatibility Mode (HDMI moslashuv rejimi) xususiyati HDMI 2.0. ni qo'llamaydigan eski uskunalarni tanish mumkin.
		On (Yoqish) HDMI Compatibility Mode (HDMI moslashuv rejimi) yoqish.
		Off (O'chirish) HDMI Compatibility Mode (HDMI moslashuv rejimi) o'chirish.
		 ESLATMA - Agar ulangan moslama HDMI Compatibility Mode (HDMI moslashuv rejimi) ni qo'llamasa, ekran yoki ovoz normal ishlamay qolishi mumkin. - HDMI (HDMI) Muvofiqlik rejimi yoqilganda, 2560 x 1440 @ 120/144Hz ravshanliklarni qo'llab-quvvatlamaydi. - Ba'zi eski grafik kartalar HDMI 2.0,-ni qo'llab-quvvatlamaydi, lekin siz Windos kontrol panelida HDMI 2.0 o'lchamini tanlashingiz mumkin. Bu ekranning g'ayritabiiy ko'rinishiga olib kelishi mumkin.
	DisplayPort 1.2	DisplayPort 1.2-ni yoqadi yoki o'chiradi.  ESLATMA Bu variantni grafik kartangiz qo'llab-quvvatlovchi DisplayPort versiyasiga moslanganligini tekshiring. Agar grafik kartangiz DisplayPort 1.2-ni qo'llab-quvvatlamasa, ushbu variantni Off (O'chirilgan)ga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.

General (Umumiy)	Quick Charge (Tezkor zaryadlash)	Quick Charge (Tezkor zaryadlash) bu USB 3.0 portiga ulangan qurilmani tezkor zaryadlovchi xususiyatdir.	
		On (Yoqish)	Quick Charge (Tezkor zaryadlash) -ni yoqadi.
		Off (O'chirish)	Quick Charge (Tezkor zaryadlash) rejimini o'chiradi.
		 ESLATMA • Qurilmaga bog'liq ravishda zaryadlash tezligi farq qilishi mumkin.	
	OSD Lock (OSD Qulfi)	Bu xususiyat konfiguratsiya va sozlash menyularini o'chirib qo'yadi.	
		On (Yoqish)	OSD Lock (OSD Qulfi) -ni yoqadi.
		Off (O'chirish)	OSD Lock (OSD Qulfi) -ni o'chiradi.
		 ESLATMA • Picture Adjust (Tasvirni sozlash)da Brightness (Yorqinlik), Contrast dan tashqari, Input (Kiritish), General (Umumiy)da OSD Lock (OSD qulfi) va Information (Ma'lumot)dan tashqari barcha xususiyatlar o'chirib qo'yiladi	
	Information (Ma'lumot)	Ekranda haqida Model (Model), Serial Number (Seriya raqami), Total Power On Time (Quvvat yoqilgan umumiy vaqti), Resolution (Ravshanligi), FreeSync certification logo (FreeSync sertifikatlash logotipi) haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.	
		 ESLATMA • FreeSync sertifikatlash logotipi faqat FreeSync parametri Extended (kengaytirilgan) holatda ko'rsatiladi.	
	Reset (Qayta tiklash)	Sukut bo'yicha o'rnatilgan sozlanmalarni tiklaydi.	

NOSOZLIKLARNI TUZATISH

Displayda hech narsa ko'rsatilmaydi.	
Monitoring elektr manbaiga ulash shnuri ulanganmi?	Quvvat manbaiga ulash shnurining rozetkaga to'g'ri ulanganligini tekshiring.
Quvvat LED ko'rsatkichi yoqilganmi?	Quvvat manbaiga ulash shnuri ulanishini tekshiring va quvvat tugmasini bosing.
Quvvat yoqilganmi va quvvat LED qizil rangda ko'rinadimi?	Ulangan kirish signali yoqilganligini tekshiring (Settings (Sozlamalar) - Input (Kiritish)).
Quvvat LED ko'rsatkichi miltillayaptimi?	- Agar monitor uyqu rejimida bo'lsa, displeyni yoqish uchun sichqonchani qimirlating yoki klaviaturada bironta tugmani bosing. - Kompyuter yoqilganligini tekshiring.
The screen is not currently set to the recommended resolution. If you have no video or the screen flickers, see the troubleshooting guide in the product owner's manual. (Ekran hozirda tavsiya qilingan o'lchamlarga ega emas. Video ko'rsatilmasa yoki ekran pirpirasa, mahsulotning qo'llanmasidagi nosozliklarni tuzatish bo'limini ko'ring.) xabari ko'rsatilmoqdam?	Bu ShK (videokarta)dan uzatilayotgan signallar monitoring tavsiya etilgan gorizontal yoki vertikal chastotasi diapazonidan tashqarida bo'lganda yuz beradi. Iltimos, tegishli chastotani belgilash uchun ushbu qo'llanmaning Product Specification (Mahsulot xususiyati) bo'limini ko'ring.
No Signal (Signal Yo'q) xabari ko'rsatilmoqdam?	Bunday xabar kompyuter bilan monitor o'rtasidagi signal kabeli ulanmagan yoki unda signal yo'qligida ko'rsatiladi. Kabelni tekshiring va uni qayta ulang.
Display drayverini o'rnatganmisiz?	- Display drayverini veb-saytimizdan albatta o'rnatib oling: http://www.lg.com. - Videokartaning Plug and Play funksiyasini qo'llab-quvvatlashi yoki yo'qligini tekshiring.

Ayrim xususiyatlar o'chirib qo'yilgan.	
Menu (Menyu) tugmasini bosganda ba'zi funksiyalar mavjud emasmi?	Display qulflangan. Settings (Sozlamalar) > General (Umumiy) ga o'ting va OSD Lock (OSD Qulfi) ni Off (O'chirish) ga o'rnatish.

Ekran tasvirni saqlamoqda.	
Monitor o'chirilganda tasvir saqlanib qolmoqdam?	• Harakatsiz tasvirlarni uzoq vaqt davomida aks ettirish tasvirning saqlanishi natijasida ekranning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. • Monitoring ishlatish muddati davomiyligini cho'zish uchun ekran qo'riqchisidan foydalaning.

Display ekrani mustahkam emas va tebranib turadi. / Monitorda namoyish etilgan tasvirlar soyali izlar qoldirmoqda.	
Piksellar sonini to'g'ri tanlaganmisiz?	• Agar tanlangan piksellar soni HDMI 1080i 60/50 Hz (tutashgan) bo'lsa, ekran miltillab ishlashi mumkin. Piksellar sonini 1080p yoki talab etilganga o'zgartiring.

! ESLATMA

- Vertikal chastota: Tasvirni ko'rsatish uchun fluorescent lampa kabi, ekran bir soniyada ko'p marotaba yangilanishi kerak. Bir soniyada ekran yangilanishining soni vertikal chastota yoki yangilash tezligi deb ataladi va Gz bilan ifodalanadi.
- Gorizontaal chastota: Bitta gorizontaal chiziqni ko'rsatishga ketgan vaqtini gorizontaal davr deb atashadi. Agar 1-ni gorizontaal oraliqqa bo'lsak, natijada bir soniyada gorizontaal chiziqlar soni kelib chiqadi. Buni gorizontaal chastota deb atashadi va u kGz bilan ifodalanadi.
- Videokartaning piksellar soni yoki chastotasi monitor ruxsat etgan doirada ekanligini tekshiring va Windows-da **Boshqaruv paneli > Display > Sozlamalar** ga o'tib, tavsiya etilgan (optimal) piksellar sonini o'rnatish. (Parametrlar siz foydalanayotgan operatsion tizimga qarab farq qilishi mumkin.)
- Videokartani tavsiya etilgan (optimal) piksellar soniga o'rnatmaslik, matnning noaniqligi, ekran xiralanishi, tasvir yuzasining kesilishi yoki tasvirning noto'g'ri joylashuviga olib kelishi mumkin.
- Kompyuter yoki operatsion tizimga bog'liq bo'lib, sozlash usullari turlicha bo'lishi mumkin, va videokartaning xususiyatlariga bog'liq ravishda ba'zi piksellar soni mavjud bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda yordam uchun kompyuter yoki videokarta ishlab chiqaruvchisiga murojaat qiling.
- Ba'zi videokartalar 2560 x 1440 tasvir aniqligini qo'llab-quvvatlamasligi mumkin. Agar piksellar soni ko'rsatilmasa, videokartangiz ishlab chiqaruvchisiga murojaat qiling.

Display rangi buzilgan.	
Namoyish rangsizdek ko'rinmoqdam (16 rang)?	Rangni 24 bit (true color) yoki undan yuqorisiga o'rnatish. Windowsda, Boshqaruv paneli > Display > Sozlanmalar > Rang sifati ga o'ting. (Parametrlar siz foydalanayotgan operatsion tizimga qarab farq qilishi mumkin.)
Display rangi mustahkam emas va oq-qora rangda ko'rsatilmoqdam?	Signal kabeli to'g'ri ulanganligini tekshiring. Kabelni qayta ulang yoki ShKdagi videokartani qayta o'rnatib ko'ring.
Ekranda dog'lar mavjudmi?	Monitordan foydalanganda (qizil, yashil, ko'k, oq yoki qora) nuqtali dog'lar paydo bo'lishi mumkin. LCD (Suyuq Kristalli Display) ekrani uchun bu oddiy holdir. Bu xato ham emas, monitorning ishlashiga ham tegishli emasdir.

Naushnikdan ovoz chiqmayapti.	
Tasvirlar DP (DisplayPort) yoki HDMI kiritishidan foydalangan holda ovozsiz ko'rsatilayaptimi?	- Naushnik porti ulanishlari to'g'ri bajarilganligiga ishonch hosil qiling. - Joystik yordamida ovoz balandligini ko'tarib ko'ring. - ShKning audio chiqishini foydalanayotgan monitorga sozlang: Microsoft Windows-da Boshqaruv paneli > Apparat va ovoz > Ovoz > Monitorni standart qurilmaga o'rnatish-ga o'ting. (Parametrlar siz foydalanayotgan operatsion tizimga qarab farq qilishi mumkin.)

MAHSULOT XUSUSIYATI

LCD ekran	Turi		TFT (Thin Film Transistor - Yupqa Plyonkali Tranzistor) LCD (Liquid Crystal Display - Suyuq Kristalli Displey) ekran	
	Rang chuqurligi		HDMI	8-bitli rang qo'llab-quvvatlanadi.
			DP (DisplayPort)	8-bitli rang qo'llab-quvvatlanadi.
		Piksel qadami		0,2724 mm x 0,2724 mm
Piksellar soni	Piksellarining maksimal soni		2560 x 1440 @ 144 Hz	
	Tavsiya etilgan piksellar soni		2560 x 1440 @ 60 Hz	
Ishlash chastotasi	HDMI	Gorizontal chastota	30 kHz dan 230 kHz-gacha	
		Vertikal chastota	50 Hz dan 144 Hz-gacha	
	DP	Gorizontal chastota	30 kHz dan 230 kHz-gacha	
		Vertikal chastota	50 Hz dan 144 Hz-gacha	
Kirish ulagichi	H/P  , DP (DisplayPort) IN, USB (  1/2, HDMI IN 1/2, USB UP ( )			
Elektr quvvat manbalari	Kuchlanish		19 V --- 5,0 A yoki 19 V --- 3,3 A	
	Quvvat iste'moli (Oddiy)		Ish rejimi: 44 W (Oddiy)* Uyqu rejimi (Kutish rejimi): ≤ 0,5 W O'chirish rejimi: ≤ 0,3 W	

AC/DC Adapteri	ADS-110CL-19-3 190110G, ishlab chiqaruvchi: Honor Chiqish: 19 V --- 5,79 A		
	DA-65G19, ishlab chiqaruvchi: Asian Power Devices Inc. LCAP39, ishlab chiqaruvchi: LIEN CHANG ELECTRONIC ENTERPRISE ADS-65FAI-19 1906SEPG-1, ishlab chiqaruvchi: SHENZHEN HONOR ELECTRONIC ADS-65FAI-19 1906SEPK-1, ishlab chiqaruvchi: SHENZHEN HONOR ELECTRONIC ADS-65FAI-19 1906SEPCU-1, ishlab chiqaruvchi: SHENZHEN HONOR ELECTRONIC Chiqish: 19 V --- 3,42 A		
Atrof-muhit sharoitlari	Ishlash sharoitlari	Harorat	0 °C dan 40 °C gacha
		Namlik	Quyidagidan kam 80 %
	Saqlash sharoitlari	Harorat	-20 °C dan 60 °C gacha
		Namlik	Quyidagidan kam 85 %
O'lchamlari	Monitor o'lchamlari (Eni x Balandligi x Chuqurligi)		
	Tayanch bilan	715,2 x 493,9 x 272,2 (mm)	
	Tayanchsiz	715,2 x 423,9 x 57,1 (mm)	
Og'irligi (Upakovkasiz)	Tayanch bilan	8,3 kg	
	Tayanchsiz	6,5 kg	

Xususiyatlar ogohlantirishsiz o'zgartirilishi mumkin.

* Quvvat iste'molining Ish rejimi LGE test standarti bilan o'lchanadi. (To'liq oq namuna, Maksimal tasvir aniqligi)

* Quvvat iste'moli darajasi ishlatish sharoiti va monitor parametriga qarab har xil bo'lishi mumkin.

Zavod qo'llab-quvvatlash rejimi

(Dastlabki rejim, HDMI/ DisplayPort PC)

Dastlabki rejim	Gorizontal chastota (kHz)	Vertikal chastota (Hz)	Qarama-qarshilik G/V	Izoh
640 x 480	31,469	59,94	-/-	
800 x 600	37,879	60,317	+/+	
1024 x 768	48,363	60,0	-/-	
1152 x 864	54,347	60,05	+/+	
1280 x 720	45	60	+/+	
1280 x 1024	63,981	60,02	+/+	
1600 x 900	60,00	60,00	+/+	
1680 x 1050	65,29	59,954	-/+	
1920 x 1080	67,50	60	+/-	
1920 x 1080	83,894	74,973	+/-	
2560 x 1440	88,79	59,95	+/-	
2560 x 1440	111,86	74,97	+/-	
2560 x 1440	183,0	120,0	+/-	*
2560 x 1440	222,19	144,0	+/-	*

* HDMI (HDMI) Muvofiqlik rejimi yoqilganda, 2560 x 1440 @ 120/144Hz ravshanliklarni qo'llab-quvvatlamaydi.

HDMI Sinxronizatsiyasi (Video)

Fabrika dastlabki rejimi (Ilk o'lchamlar rejim)	Gorizontal chastota (kHz)	Vertikal chastota (Hz)	Izohlar
480p	31,5	60	
720p	45,0	60	
1080p	67,5	60	
2160p	135	60	HDMI Compatibility Mode (HDMI moslik rejimi) OFF (O'chirish) holatiga sozlanganda.



Mahsulot modeli va seriya raqami mahsulotning orqa paneli va yon tomonlaridan birida joylashgan. Servis xizmati ko'rsatish zarur bo'ladigan hollar uchun ularni quyidagiga yozib oling.

Modeli _____

Seriya raqami _____

Ushbu mahsulotdagi GPL, LGPL, MPL va boshqa ochiq litsenziyalarning boshlanish kodini olish uchun iltimos <http://opensource.lge.com> sahifasiga o'ting. Boshlanish koddan tashqari litsenziya shartlari, kafolatning bekor bo'lishi va mualliflik huquqi qoidalarini o'tkazib olishingiz mumkin. LG Electronics bundan tashqari ochiq boshlanish kodini, xarajatlari haqini (yozilgan disk haqi, jo'natish, topshirish haqini) olib CD-ROM da ham jo'natishi mumkin va buning uchun opensource@lge.com elektron manzilga so'rov yuborishingiz kerak bo'ladi. Ushbu taklif mahsulot sotib olingan kundan boshlab 3 (uch) yilgacha haqiqiy hisoblanadi.